**O‘zbekiston Respublikasida 2022-yilda yoshlar bilan manzilli ishlash tiziminiyaratish, ularni bosh vaqtini mazmunli o‘tkazish (5 muxim tashabbus) bo‘yicha vazirlik va idoralar xamkorlik dasturi ijrosi to‘g‘risida**
**MA'LUMOT**

| № | Chora-tadbirlar | Amalga oshirish mexanizmi | | Muddati | Mas'ullar | Ijro holati |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | *Tashkiliy hujjat shakli* | *Tashkil etish bosqichi* | | | |
| V. Ёшларни касбий махоратини ривожлантириш, тадбиркорлик кўникмалариини шакллантириш | | | | | | |
| 84 | Mahalla yoshlari o‘rtasida hunarmandchilik turlarini keng targ‘ib qilish, yosh hunarmandlar faolitini qo‘lab-quvvatlash maqsadida Respublika “Yosh hunarmandlar” festivalini o‘tkazish | Festival' nizomi va reja-dasturi | Mahalliy | Mart-aprel' | Farg‘ona viloyati hokimligi, “Hunarmand” uyushmasi | Bajarilmoqda.<br>O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 8 iyulda “Qo‘qon shahrida II Xalqaro xunarmandchilik festivalini tashkil etish va o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 430-sonli qarori qabul qilingan.<br>“Yosh hunarmandlar” festivalini o‘tkazish bo‘yicha - 2023 yilning sentyabr oyida Qo‘qon shahrida bo‘lib o‘tadigan “II Xalqaro hunarmandchilik festivali” bilan birgalikda qo‘shib o‘tkaziladi. Bu borada bugungi kunda tayyorgarlik ishlari olib borilmoqda. Bunda, yosh hunarmandlar o‘rtasida o‘zaro tajriba almashish va sog‘lom raqobatni yo‘lga qo‘yish, hamda mazkur festivalning tuman va shahar bosqichi joriy yilning aprel' oyida o‘tkazilib, shaharlar va tumanlardagi 1011 nafar yosh hunarmandlar viloyat bosqichiga saralanib olindi.Shuningdek, festivalning ikkinchi (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar) bosqichi joriy yilning ibyun' oyida o‘tkazildi. Unda, 483 nafar yosh hunarmandlar respublika bosqichiga saralab olindi. |
| | | | Mahalliy | May-iyun' | | |
| | | | Mahalliy | Iyul'-avgust | | |
| 85 | Yoshlar o‘rtasida hunarmandchilik rivojlantirish, faxriy hunarmandlar ko‘magida sohaga qiziquvchi yoshlar faoliyatini yo‘lga qo‘yish maqsadida “Faxriy hunarmandlar” loyihasini o‘tkazish | Konsepsiya va reja-dasturi | Mahalliy | Yanvar' oyidan boshlab yil davomida | **“Hunarmand” uyushmasi, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi** | **Bajarilmoqda.**<br>“Faxriy hunarmand” loyihasini o‘tkazish – yuzasidan 2022 yil 25iyul' holatiga hududlar bo‘yicha 246 nafar usta hunarmandlar ro‘yxati shakllantirilib, “Yoshlar ishlari agentligi”ning hududiy bo‘limlari hunar o‘rganish istagini bildirgan ishsiz va “Yoshlar daftariga” kiritilgan |

| № | Chora-tadbirlar | Amalga oshirish mexanizmi | | Muddati | Mas'ullar | Ijro holati |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | *Tashkiliy hujjat shakli* | *Tashkil etish bosqichi* | | | |
| | | | | | | yoshlarni "usta-shogird" an'anasi asosida hunarmandga biriktirish bo'yicha "Hunarmand" uyushmasining tuman (shahar) bo'limlariga murojaat etishlari so'raladi. |
| 86 | Yoshlarni kelgusida jamiyatga ijtimoiy mostlashuvini ta'minlash maqsadida jazoni ijro etish muassasalarida jazo muddatini o'tayotgan va jazo muddatini o'tab chiqqan yoshlarga usta-shogird an'analari asosida hunar o'rgatish tizimini yaratish | Konsepsiya va reja-dasturi | Mahalliy | Yanvar' oyidan boshlab yil davomida | **"Hunarmand" uyushmasi, Ichki ishlar vazirligi** | **Bajarilmoqda.**<br>"Jazoni ijro etish" tizimida "Usta-shogird" maktablari faoliyatini tashkil etish bo'yicha - O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va "Hunarmand" uyushmasining 2019 yil 25 fevraldagi "Jazoni ijro etish tizimida usta-shogird maktablari faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risida"gi nizomiga asosan 3 fevral' kuni Zafarobod tumanidagi 31-son jazoni ijro etish koloniyasida mahkumlarga usta hunarmandlarning maxsulotlaridan ko'rgazma tashkil etildi va 24 nafar yosh maxkumlar ishtiroki ta'minlandi.<br>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 yanvardagi PQ-4138-son "Ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarning mehnat bilan bandligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ijrosi yuzasidan joriy yil davomida (25 iyul' holatiga) respublikadagi 10 ta Jazoni ijro etish muassasasida hunarmandchilikning turli yo'nalishlarida jami 40 ta o'quv kursi tashkil etildi, ularda hunar o'rgangan 394 nafar mahkumga Uyushmaning maxsus sertifikatlari berildi. Mahkumlarning 213 nafari 30 yoshgacha bo'lgan yoshlardir. |